O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

TASDIQLAYMAN
Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori
Sh.A.Boymuradov
«__» ____ 2025 y

Bilim sohasi: Sog‘liqni saqlash

“Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” mavzysi bo’yicha
umumiy malaka oshirish kursi
o‘quv dasturi

(o‘qish hajmi – 144 kredit)

Qayd raqami 9091680

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:

Usmanxodjayeva A.A.	TTA reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedra mudiri, t.f.d., dotsent

Taqrizchilar:

Tulyaganova D.K.	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy terapiya va tibbiy reabilitatsiya tibbiy markazi katta ilmiy xodimi, t.f.d.
Mavlyanova Z.F.	SamDTU Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tibbiyoti kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” mavzysi bo’yicha umumiy malaka oshirish kursi o‘quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot universiteti markaziy uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan

«_17_» dekabr 2025y., bayonnoma № __4__

Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” mavzysi bo’yicha umumiy malaka oshirish kursi o‘quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot Universiteti Ilmiy Kengashida tasdiqlangan

«_25_» dekabr 2025y., bayonnoma № __6__

1.KIRISH

1.1.Maqsad: Sog'liqni saqlash tizimida faoliyat olib borayotgan reabilitolog shifokorlar va fizioterapevtlarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari hamda xalqaro ilmiy-amaliy tajribalar asosida takomillashtirish va ularning malaka darajasini oshirish.

1.2.Vazifalar: Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini moduli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.

1.3.Ta'lim oluvchilar kontingenti: fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya va reabilitologiya bo'yicha mutaxassislari (klinik ordinatura va magistratura bitiruvchilar), fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya va reabilitologiya bo'yicha ixtisosligi bor shifokorlar.

1.4.Dasturning dolzarbligi

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiy reabilitatsiya, fizioterapiya va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Aholining surunkali kasalliklari, nogironlikka olib keluvchi holatlar, travma va nevrologik kasalliklar sonining ortib borishi zamonaviy reabilitatsiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, tibbiy reabilitatsiya tizimiga innovatsion fizioterapevtik texnologiyalarni, robotlashtirilgan reabilitatsiya, telereabilitatsiya, virtual reallik hamda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya xizmatlari sifatini oshirish va zamonaviy protez-reabilitatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlari mazkur yo'nalishning strategik ahamiyatini belgilab berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5217-son qarorida nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, zamonaviy reabilitatsiya vositalarini joriy etish hamda reabilitatsiya tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish, zamonaviy protez-ortopediya vositalari bilan ta'minlash hamda inklyuziv va qulay muhit yaratish ustuvor maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish tizimini yanada rivojlantirishga oid qarorlarida reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish, individual

reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Mazkur omillar sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan reabilitolog shifokorlar, fizioterapevtlar va boshqa mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda xalqaro standartlar asosida muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Shu sababli innovatsion fizioterapiya bo'yicha malaka oshirish modullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tibbiy reabilitatsiya xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni (O'zbekiston Respublikasining qonunlari, texnik reglamentlar, xalqaro va milliy standartlar, buyruqlar, tavsiyalar, terminologiya, xalqaro birliklar tizimlari (SI), amaldagi xalqaro tasniflar), shuningdek, sifat va ish faoliyatini baholash uchun hujjatlardan foydalanish imkoniyati va bemorlarga tibbiy reabilitatsiya yordamini ko'rsatish, ularning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy tibbiy-tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy texnologiyalarning aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda samaradorligini baholash uchun turli xil tibbiy tashkilotlarning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv va xo'jalik faoliyati to'g'risidagi bilimlardan foydalanish, fizioterapevtik profildagi tibbiyot tashkilotlarining o'rta va kichik tibbiy xodimlarining mehnatini oqilona tashkil qilishni ta'minlash imkoniyati va tayyorligi; ularni reabilitatsiya profilidagi tibbiy muassalarida o'tkaziladigan asosiy manipulyatsiyalar va muolajalarga o'rgatish talab qilinida.

O'quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondashuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me'yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy reabilitatsiya yordami doirasidagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.5. Dastur xajmi. Hozirgi vaqtda fizioterapevtlari va reabilitolog shifokorlari uchun "Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o'rni" moduli bo'yicha umumiy malaka oshirish davomiyligi 1 oy bo'lib (144 kredit), bu vaqtda shifokor sog'liqni saqlashning muassasalarida ishlash uchun kerak bo'lgan zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

1.6.O'qish shakli: "Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o'rni" moduli bo'yicha umumiy malaka oshirish kursi ishdan to'liq ajralgan holda o'tkazilib, ilg'or pedagogik va innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarini yordamida amalga oshiriladi.

1.7.Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: kuniga 6 kredit-soat, xaftasiga 36 kredit-soatdan, 8.30 dan 13.30 gacha, 45 daqiqalik tushlik tanaffus va xar 2 akademik soatli (80 daqiqa) mashg'ulotdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus. Dasturning umumiy davomiyligi – 144 kredit-soat (4 xafta).

1.8.Malaka oshirishdan so‘ng beriladigan xujjat. “Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” moduli bo‘yicha umumiy malaka oshirish kursini tugatib, yakuniy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgandan so‘ng, unga tegishli namunadagi sertifikat\guvohnoma topshiriladi.

2.REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1. “Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” moduli bo‘yicha umumiy malaka oshirish dasturini egallash natijasida takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetentsiyalar ushbu mutaxassislikning malakaviy xarakteristikasiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Umumiy kompetentsiyalar: hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;

intizomiy, ma’muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;

so‘rov o‘tkazish, jismoniy ko‘rikdan o‘tkazish, klinik tekshirish, bemorlarni zamonaviy laboratoriya va instrumental tadqiqotlar natijalarini o‘tkazish va izohlash, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy kartani yozish xoxshi va amalga oshirishi;

klinik sindromlarni patofiziologik tahlilini o‘tkazish, bemorlarda ularning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tashxis qo‘yish, davolash, reabilitatsiya va profilaktika usullarini asoslashga tayyorligi va amalga oshirishi kerak;

bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma’lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi; kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish. Tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyati olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish.

Kasbiy kompetentsiyalar: davolash va reabilitatsiya bosqichida bemorlarga tashxisga muvofiq yetarli (fizioterapevtik) davolanishni buyurish, reabilitantlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, reabilitatsiya xizmatlarini etkazib beruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, reabilitatsiya infra tuzilmasi va undan reabilitatsiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish, reabilitatsiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish imkoniyati; o‘z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma’naviy-xuquqiy me’yorlarga ko‘ra yuritish, konfidentsial ma’lumotlar bilan ishlashda shifokorlik etikasi, qonunlar, me’yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, shifokorlik sirini saqlash.

“Bemorlarning davolash va kompleks reabilitatsiyasida zamonaviy fizioterapevtik omillarni o‘rni” moduli bo‘yicha umumiy malaka oshirish dasturida tahsil olish davomida olingan ma’lumotlar asosida aholining salomatligini saqlash, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish, asoratlarni oldini

olish, kasalliklarga olib keluvchi xavf omillarini aniqlash va ularni modifikatsiyalash, aholida o‘z salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom oilani shakllantirish bo‘yicha sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1.Umumiy malaka oshirish dasturining o‘quv rejasi (144 kredit-soat)

№	Modul, bo‘lim va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari				Attestatsiya
			Ma’ruza	Amaliy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar			
				Amaliy mashg‘u-lot	Simulyatsion o‘quv	Seminar	
1	**MODUL:** Milliy g‘oya. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika tizimidagi me’yoriy hujjatlar	6	2			4	1
2	**MODUL:** Dalillarga asoslangan fizioterapiya	6	2			3	1
3	**MODUL:** Elektroterapiyaning innovatsion texnologiyalari TENS va EMS terapiya	24	2	9		12	1
4	**MODUL:** Fototerapiya usullarga innovatsion yondashuvlar	24	2	9		12	1
5	**MODUL:** O‘rta va yuqori chastotali mexanik tebranishi usullarini xususiyatlari (ultratovush, zarba to‘lqini terapiyasi, pressoterapiya)	24	2	9		12	1

6	**MODUL:** Krioterapiya va termoterapiyaning innovatsion usullari	18	2	9		6	1
7	**MODUL:** Turli kasalliklarda magnitoterapiya afzalligi	24	2	9		12	1
8	**MODUL:** Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt reabilitatsiyada	18	2	9		6	1
	Yakuniy attestatsiya						8
	JAMI	144	16	54		66	8

1-MODUL. Milliy g'oya. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat taraqqiyot strategiyasi hisoblanadi. Strategiyada sog'liqni saqlash, tibbiy reabilitatsiya, aholi salomatligini mustahkamlash va inklyuziv ijtimoiy himoya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi PQ-38-son qarori "Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Mazkur qarorda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiy ta'limni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, "Jismoniy faollik va reabilitatsiya" magistratura yo'nalishini joriy etish hamda tibbiyot xodimlari malakasini oshirish masalalari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PF-88-son Farmoni

"Respublikada sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modelini joriy qilish to'g'risida" Farmonda sog'liqni saqlash tizimini yangi model asosida tashkil etish, ko'p tarmoqli tibbiyot muassasalari faoliyatini rivojlantirish hamda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PQ-185-son qarori

"Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". Mazkur qaror sog'liqni saqlash tizimida yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, tibbiy yordam sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son qarori

"Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida".Qarorda tibbiyot tashkilotlarini

litsenziyalash va akkreditatsiyalash tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar xavfsizligi va sifatini oshirish vazifalari belgilangan.
Vazirlar Mahkamasi va SSV hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 18-martdagi 84-son buyrug‘i. “Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirish faoliyatini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” Buyruq klinik protokollarni dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi.
O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 29-martdagi 107-son buyrug‘i “Milliy va mahalliy klinik protokol hamda standartlarni tasdiqlash va tibbiyot amaliyotiga joriy etish to‘g‘risida”
Mazkur hujjat tibbiy amaliyotda yagona standartlashtirilgan yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 23-fevraldagi 52-son buyrug‘i “Milliy va mahalliy klinik protokollarni ishlab chiqish metodologiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Ushbu hujjat zamonaviy klinik protokollarni ishlab chiqish metodologiyasini belgilaydi.
O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi 160-son buyrug‘i “Tibbiy va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”. Buyruq tibbiyot xodimlarining uzluksiz professional rivojlanish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

2-MODUL. Dalillarga asoslangan fizioterapiya.
Zamonaviy tibbiy reabilitatsiya tizimida fizioterapevtik usullarni ilmiy jihatdan asoslangan holda qo‘llash tamoyillarini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchilarda klinik qaror qabul qilish, fizioterapevtik muolajalarni tanlash va reabilitatsiya samaradorligini baholash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur modulning asosiy mohiyati fizioterapiya amaliyotida dalillarga asoslangan tibbiyot (Evidence-Based Medicine) konsepsiyasini joriy etishdan iborat bo‘lib, bunda klinik qarorlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari, xalqaro klinik tavsiyalar, meta-tahlillar, randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqotlar hamda bemorning individual klinik holati asosida qabul qilinadi. Modul davomida tinglovchilar fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya sohasida ilmiy ma’lumotlarni izlash, tanqidiy tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, fizioterapevtik omillarning klinik samaradorligi, xavfsizligi, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalari, shuningdek ularni qo‘llashning xalqaro standartlari o‘rganiladi.

3-MODUL. Elektroterapiyaning innovatsion texnologiyalari. TENS va EMS terapiya
Mazkur modul zamonaviy elektroterapiya texnologiyalarining nazariy asoslari va klinik amaliyotdagi qo‘llanilishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tinglovchilarda TENS (Transcutaneous Electrical Nerve Stimulation) va EMS (Electrical Muscle Stimulation) terapiyalarini dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

3.1. Modul davomida elektroterapiyaning fiziologik va biofizik asoslari, elektr toklarining nerv-mushak tizimiga ta'sir mexanizmlari, og'riq sindromlarini kamaytirishdagi neyrofiziologik mexanizmlar hamda mushak faoliyatini tiklashdagi roli chuqur o'rganiladi. TENS terapiya doirasida:og'riqni boshqarishning zamonaviy usullari;"Gate control theory" mexanizmi;o'tkir va surunkali og'riqlarda qo'llash; nevrologik, ortopedik va sport tibbiyotidagi qo'llanilishi;individual parametrlarni tanlash;xavfsizlik va qarshi ko'rsatmalar masalalari ko'rib chiqiladi.
3.2. EMS terapiya bo'limida mushaklarning elektr stimulyatsiyasi asoslari; mushak atrofiyasining oldini olish;motor funksiyalarni tiklash;insultdan keyingi reabilitatsiya;travmatologiya va ortopediyadagi qo'llanilishi; sport reabilitatsiyasi va mushaklarni funksional faollashtirish usullari o'rganiladi.
Mazkur modulning dolzarbligi surunkali og'riq sindromlari, nevrologik va ortopedik kasalliklar, sport jarohatlari hamda operatsiyadan keyingi reabilitatsiyada elektroterapiya usullarining yuqori samaradorligi va keng qo'llanilishi bilan izohlanadi. Modul zamonaviy fizioterapevtik texnologiyalarni klinik amaliyotga xavfsiz va samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

4-MODUL. Fototerapiya usullariga innovatsion yondashuvlar
Mazkur modul zamonaviy fototerapiya texnologiyalarining nazariy asoslari, biologik ta'sir mexanizmlari va klinik amaliyotdagi qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda yorug'lik terapiyasining innovatsion usullarini dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Modul davomida turli spektrdagi yorug'lik nurlarining organizmga fiziologik ta'siri, fotobiomodulyatsiya mexanizmlari, hujayra metabolizmi va regenerativ jarayonlarga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tinglovchilar fototerapiyaning zamonaviy yo'nalishlari, klinik samaradorligi va xavfsizlik tamoyillari bilan tanishadilar.
4.1.Modul tarkibida quyidagi innovatsion fototerapiya usullari o'rganiladi:
past intensivlikdagi lazer terapiyasi (Low-Level Laser Therapy — LLLT);
LED terapiya; infraqizil va ultrabinafsha nurlanish terapiyasi; fotobiomodulyatsiya; polixromatik yorug'lik terapiyasi; dinamik yorug'lik stimulyatsiyasi; kombinatsiyalashgan fotoelektr terapiya texnologiyalari.
Modul davomida fototerapiya apparatlari bilan ishlash, nurlanish parametrlarini individual tanlash, dozalash, muolajalar xavfsizligini ta'minlash va klinik samaradorlikni monitoring qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

5-MODUL. O'rta va yuqori chastotali mexanik tebranish usullarining xususiyatlari (ultratovush, zarba to'lqini terapiyasi, pressoterapiya)
Mazkur modul zamonaviy fizioterapiyada qo'llaniladigan o'rta va yuqori chastotali mexanik tebranish texnologiyalarining nazariy asoslari, biologik ta'sir mexanizmlari hamda klinik amaliyotdagi qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan.

5.1. Modul tinglovchilarda ultratovush terapiyasi, zarba to'lqini terapiyasi (Shockwave therapy) va pressoterapiya usullarini dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.
5.2. Modul davomida mexanik tebranishlarning biologik to'qimalarga ta'siri, mikrosirkulyatsiyani yaxshilash, regeneratsiya jarayonlarini faollashtirish, yallig'lanishga qarshi va analgetik samaralari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mexanoterapiyaning zamonaviy innovatsion texnologiyalari va ularning klinik samaradorligi ko'rib chiqiladi.Ultratovush terapiyasi.Zarba to'lqini terapiyasi (Shockwave therapy) ekstrakorporal zarba to'lqin terapiyasining (ESWT) ishlash prinsiplari;akustik to'lqinlarning biologik ta'siri;surunkali tendinopatiyalar;plantar fastsiit;epikondilit; miofascial og'riq sindromlari;sport jarohatlaridagi samaradorligi tahlil qilinadi.
5.3. Pressoterapiya bo'limida:pnevmatik kompressiya terapiyasining fiziologik asoslari; limfodrenaj mexanizmlari;venoz va limfatik yetishmovchiliklarda qo'llanilishi; operatsiyadan keyingi shishlarni kamaytirish;sport reabilitatsiyasida tiklanish jarayonlarini tezlashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.
Tinglovchilar pressoterapiya apparatlari bilan ishlash, bosim parametrlarini individual tanlash va muolajalar monitoringini olib borish ko'nikmalarini egallaydilar. Modul davomida mexanik tebranish texnologiyalarining: ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalari; xavfsizlik tamoyillari;klinik protokollar;dalillilik darajasi;
xalqaro tavsiyalar asosida qo'llanilishi alohida o'rganiladi.
Mazkur modulning dolzarbligi zamonaviy fizioterapiya va reabilitatsiya amaliyotida ultratovush terapiyasi, shockwave terapiya va pressoterapiyaning yuqori klinik samaradorligi, minimal invazivligi hamda bemorlarning funksional holatini tiklashdagi muhim o'rni bilan belgilanadi. Modul innovatsion fizioterapevtik texnologiyalarni klinik amaliyotga samarali integratsiya qilishga xizmat qiladi.

6-MODUL: Krioterapiya va termoterapiyaning innovatsion usullari

Zamonaviy krioterapiya va termoterapiya texnologiyalarining nazariy asoslari, biologik ta'sir mexanizmlari hamda klinik amaliyotdagi qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda sovuq va issiqlik omillaridan fizioterapiya hamda kompleks reabilitatsiyada samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.
Modul davomida past va yuqori haroratlarning organizmga fiziologik ta'siri, mikrosirkulyatsiya, nerv-mushak tizimi, metabolik jarayonlar hamda regeneratsiya mexanizmlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, krioterapiya va termoterapiyaning analgetik, yallig'lanishga qarshi, spazmolitik va tiklovchi samaralari dalillarga asoslangan tibbiyot nuqtai nazaridan o'rganiladi.
6.1. Krioterapiyaning innovatsion usullari lokal krioterapiya;umumiy krioterapiya; kriokamera texnologiyalari;kriostimulyatsiya;sport tibbiyotida sovuq terapiya; operatsiyadan keyingi reabilitatsiyada krioterapiya;nevrologik va ortopedik kasalliklarda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Tinglovchilar krioterapiyaning: og'riqni kamaytirish; mushak spazmini pasaytirish; shish va yallig'lanishni kamaytirish;

tiklanish jarayonlarini tezlashtirish mexanizmlarini amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Shuningdek, zamonaviy portativ kriotizimlar, sensor nazoratli sovutish qurilmalari hamda sport reabilitatsiyasida qo'llaniladigan innovatsion sovuq terapiya texnologiyalari o'rganiladi.Termoterapiyaning innovatsion usullari. Mazkur bo'limda: parafinoterapiya; ozokeritoterapiya; infraqizil issiqlik terapiyasi;quruq issiqlik usullari; yuqori intensivlikdagi termoterapiya; kombinatsiyalashgan issiqlik texnologiyalari o'rganiladi.

7-MODUL: Turli kasalliklarda magnitoterapiya afzalligi modulining mazmun-mohiyati

Mazkur modul zamonaviy magnitoterapiya usullarining nazariy asoslari, biologik ta'sir mexanizmlari va klinik amaliyotdagi qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda magnit maydon terapiyasini turli kasalliklarda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Modul davomida doimiy, o'zgaruvchan va impulsli magnit maydonlarning organizmga fiziologik ta'siri, hujayra metabolizmi, mikrosirkulyatsiya, nerv-mushak tizimi va regenerativ jarayonlarga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, magnitoterapiyaning yallig'lanishga qarshi, analgetik, trofik va antiödematik samaralari o'rganiladi.

7.1. Modul tarkibida magnitoterapiyaning quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi: travmatologiya va ortopediyada — osteoartroz, osteoxondroz, sinishlardan keyingi reabilitatsiya, mushak-bo'g'im sindromlari; nevrologiyada — radikulopatiya, nevropatiya, insultdan keyingi reabilitatsiya, vegetativ buzilishlar; sport tibbiyotida — sport jarohatlaridan keyingi tiklanish, mushak spazmlari va og'riq sindromlari;
kardiologik reabilitatsiyada — periferik qon aylanish buzilishlari va mikrosirkulyatsiya yetishmovchiligi; jarrohlikdan keyingi reabilitatsiyada — shishlarni kamaytirish va regeneratsiyani tezlashtirish; surunkali og'riq sindromlarida — analgetik va funksional tiklovchi terapiya sifatida qo'llanilishi.

7.2. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar: impulsli magnitoterapiya;
yuqori intensivlikdagi magnit stimulyatsiya; portativ magnitoterapiya tizimlari;
Modulda magnitoterapiyaning dalillilik darajasi, xalqaro klinik tavsiyalar, meta-tahlillar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida samaradorligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

8-MODUL: Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt reabilitatsiyada

Mazkur modul zamonaviy tibbiy reabilitatsiyada virtual reallik (Virtual Reality — VR), kengaytirilgan reallik (Augmented Reality — AR), aralash reallik (Mixed Reality — MR) hamda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence — AI) texnologiyalarining qo'llanilish asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda innovatsion raqamli reabilitatsiya texnologiyalarini klinik amaliyotda samarali qo'llash bo'yicha zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Modul davomida immersiv texnologiyalarning nerv tizimi, motor funksiyalar, kognitiv faoliyat va psixoemotsional holatga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida ishlovchi reabilitatsiya platformalarining individual reabilitatsiya dasturlarini optimallashtirishdagi o'rni va klinik samaradorligi o'rganiladi.

8.1.Virtual reallik texnologiyalari- VR, AR va MR texnologiyalarining asoslari; immersiv reabilitatsiya muhiti; motor funksiyalarni tiklash; koordinatsiya va balansni yaxshilash; neyroplastiklikni rag'batlantirish; kognitiv reabilitatsiya; psixologik adaptatsiya va motivatsiyani oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

8.2. VR texnologiyalarining: insultdan keyingi reabilitatsiya; Parkinson kasalligi; serebral falaj; travmatologik va ortopedik reabilitatsiya; sport tibbiyoti; pediatrik reabilitatsiyadagi qo'llanilishi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning reabilitatsiyadagi o'rni

Modul davomida innovatsion texnologiyalarning: xavfsizligi; etik va huquqiy jihatlari; ma'lumotlar maxfiyligi; klinik samaradorligi; dalillilik darajasi va xalqaro tavsiyalar asosida qo'llanilishi alohida o'rganiladi.

Mazkur modulning dolzarbligi zamonaviy tibbiy reabilitatsiyada raqamli texnologiyalar ulushining ortib borishi, reabilitatsiya xizmatlarini individuallashtirish, bemor motivatsiyasini oshirish hamda funksional tiklanish samaradorligini yaxshilash zarurati bilan belgilanadi. Modul innovatsion reabilitatsiya texnologiyalarini klinik amaliyotga integratsiya qilish bo'yicha mutaxassislarning professional tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.2. Simulyatsion kurs (tibbiy trening) kurs mazmuni

№	Simulyatsiya uchun maxsus anjomlar	O'SKni o'tkazish joyi	Shakllanadigan kasbiy ko'nikmalar
1	Zamonaviy fizioterapevtik apparatlar	fizioterapiya bo'limida va klinik bazalarda	Bemorlarda fiziomuolajalarni mustaqil o'tkazish

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1.O'quv bazalari. Umumiy malaka oshirish kursi Toshkent davlat tibbiyot universiteti tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tibbiyoti va jismoniy tarbiya kafedrasida amalga oshiriladi. Ushbu kafedraning o'quv bazalari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy terapiya va tibbiy reabilitatsiya markazi, Respublika nogironlarni protezlash va reabilitatsiya qilish milliy markazi, 15-Oilaviy poliklinika

Shox International Hospital Reabilitatsiya markazi, U.Q.Qurbonov nomidagi Respublika bolalar ruhiy asab kasalxonasi, M-clinic "Ko'p tarmoqli tibbiyot markazi" o'quv bazalarida amalga oshiriladi.

Har bir o'quv bazasi o'quv jarayoni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan jihozlar, hamda zamonaviy fizioapparatlar, gidro- va balneologik jihozlar, kompyuterlar, proyektor, doska, flipchatlar, kutubxonalar, klinik laboratoriya va funktsional tekshirish bo'lim kabilar bilan ta'minlangan.

Har bir o'quv bazasidagi auditoriyalar umumiy soni – 10 ta, mebel jihozlari, doskalar, 5 ta kompyuter, 3 ta proyektor va boshqa tashkiliy texnika bilan jihozlangan. O'quv auditoriyalaridan tashqari, 2 ta ma'ruza zallari va 2 ta kutubxonalar bor.

4.2.Dastur bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati: fizioterapevtik muolajalar o'tkazish jihozlari, multimedia jamlanmasi, o'quv electron doskalar, flipchat, marker. Modullar bo'yicha tavsiya qilinadigan o'quv uslubiy xujjatlar, tarqatma materiallar, nazorat savollari, adabiyotlar elektron nushada saqlanadi.

Modul mavzusi	Mashg'ulotda qo'llashga tavsiya etilgan o'quv jihozlari
Milliy g'oya. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Sog'liqni saqlash va farmatsevtika tizimidagi me'yoriy hujjatlar	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar
Dalillarga asoslangan fizioterapiya	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar
Elektroterapiyaning innovatsion texnologiyalari TENS va EMS terapiya	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlar
Fototerapiya usullarga innovatsion yondashuvlar	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlar
O'rta va yuqori chastotali mexanik tebranishi usullarini xususiyatlari (ultratovush, zarba to'lqini terapiyasi, pressoterapiya)	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlari
Krioterapiya va termoterapiyaning innovatsion usullari	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlar
Turli kasalliklarda magnitoterapiya afzalligi	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlar
Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt reabilitatsiyada	Multimediya, o'quv doskasi, flipchart, markerlar, tonometr, fizioterapevtik apparatlar

4.3.Adabiyotlar ro‘yxati

4.3.1. Qonunchilik va me’yoriy-huquqiy xujjatlar ro‘yxati

1.O‘zR “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”;

2.Sog‘liqni saqlash xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan davlat talablari;

3.O‘zR Prezidentining 5.05.2017 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2956-son qarori;

4.O‘zR Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;

5.O‘zR Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;

6.O‘zR Prezidentining “2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” 07.02.2017 yildagi Farmoni;

7.O‘zR Prezidenti tomonidan ko‘tarilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta tashabbus loyixasi, 2019 yil;

8.O‘zR Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zR korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni;

9.O‘zR Prezidentining “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.05.2019 yildagi Farmoni;

10.O‘zR Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 06.09.2019 yildagi Farmoni;

11.O‘zR Prezidentining “Dori vositalarni noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to‘g‘risida” 06.09.2019 yildagi Qarori;

12.O‘zR Prezidentining “Xuquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun xujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 04.11.2019 yildagi Qarori;

13.O‘zR Prezidentining “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi 09.11.2019 yildagi Qarori;

14.O‘zR Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli “O‘zR sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;

15.O‘zR Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;

16.O‘zR VMning 27.09.2017 yildagi № 769-sonli “Tibbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;

17.O‘zR VMning 13.09.2017 yildagi №718-sonli “BTSYO muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o‘tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas’uliyatni oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori;

18.O‘zR SSVning 25.12.2017 yildagi №777-sonli “O‘zR SSV tizimidagi tibbiyot muassasalarida yuritiladigan tibbiy hisob hujjatlarni tasdiqlash haqida” buyrug‘i;

19.O‘zR SSVning 08.09.2017 yildagi №517-sonli “Toshkent shahar ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar faoliyatini tashkil etish xaqida” buyrug‘i;

20.O‘zR SSVning 18.09.2017 yildagi №535-sonli “BTSYO muassasalarida profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi uchun mas’ulligini oshirish choralari to‘risida” buyrug‘i va boshqa me’yoriy hujjatlar.

4.3.2. Dasturda ko‘zda tutilgan modullar bo‘yicha tavsiya qilinadigan o‘quv-uslubiy hujjatlar va materiallar ro‘yxati

1. Usmanxodjayeva A.A., Sobirova G.N., Ivanova I.I./ “Reabilitologiya” fanidan elektron o’quv qo’llanma. 2025-Toshkent,190 bet. .
2. Usmanxodjayeva A.A., Sobirova G.N., Adilov Sh.K., Sharipov U.A. /Davolovchi jismoniy tarbiya va an’anaviy gimnastika usullari // Elektron Darslik // «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi» MCHJ Toshkent – 2025, 389 – bet.
3. Usmanxodjayeva A. A., Adilov Sh.Q., Visogortseva O. N. / Fizioterapiya //Darslik
4. «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi» MCHJ Toshkent – 2022, 275 – bet.
5. Мавлянова З.Ф. Reabilitatsiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, 2022.
6. Пономаренко Г.Н. Общая физиотерапия: учебник. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2025.
7. Епифанов В.А., Разумов А.Н. Медицинская реабилитация: учебник. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2023.
8. Епифанов В.А. Лечебная физическая культура: учебное пособие. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020.
9. Физическая и реабилитационная медицина: национальное руководство / под ред. Г.Н. Пономаренко. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2022.
10. Ильина И.В. Медицинская реабилитация (физиотерапия): учебник для вузов. — Москва: Юрайт, 2024.
11. Санаторно-курортное лечение: национальное руководство / под ред. А.Н. Разумова, Г.Н. Пономаренко. — Москва, 2021.
12. Медицинская реабилитация в неврологии: руководство для врачей. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2024.
13. Медицинская реабилитация пациентов на дому: руководство для врачей. — Москва, 2025.
14. Медицинская реабилитация при заболеваниях органов дыхания: руководство для врачей. — Москва, 2025.

4.3.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016.
3. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq *farovonligining garovi*” *Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017.*
4. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017.
5. “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” 4 jildlik to‘plam. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.

4.3.4.Internet-resurslar

- PubMed
- Cochrane Library
- PEDro Physiotherapy Database
- Scopus
- Google Scholar
- World Physiotherapy
- American Physical Therapy Association (APTA)
- Physiopedia
- European Society of Physical and Rehabilitation Medicine
- WHO Rehabilitation Programme
- IFESS — Functional Electrical Stimulation Society
- Electrotherapy on the Web
- International Society for Medical Shockwave Treatment
- World Association for Laser Therapy
- NAALT Photobiomodulation Therapy
- XR Health
- MindMaze
- IEEE Engineering in Medicine and Biology Society
- American College of Sports Medicine
- British Journal of Sports Medicine
- LexUZ
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
- TIPME klinik protokollari
- Prezident rasmiy sayti

5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya - kurs yakunida mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli bo‘lib, tinglovchi tomonidan o‘quv reja va dastur asosida o‘qitilgan modullar bo‘yicha egallangan nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy kompetentsiya, klinik fikrlash

qobiliyatini rivojlanganlik darajasi, olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash mahorati aniqlash va o'qitish samaradorligini baholashni ko'zda tutadi. Xar bir tinglovchi tasdiqlangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq yakuniy attestatsiyadan o'tishi shart.

Yakuniy attestatsiya sinov (zachyot) bilan yakunlanadigan mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov suhbat, test va amaliy ko'nikmalarni bajarish shaklida o'tkazilib, o'tish bali - 70 ball etib belgilangan.

Yakuniy attestatsiya va boshqa nazorat turlarini o'tkazish tartibi malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasasi o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan, tasdiqlangan va ishchi o'quv dasturlarida aniq keltirilgan "Tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baxolash to'g'risidagi NIZOM"da ko'rsatilgan baholash mezonlari asosida bajariladi.

Yakuniy attestatsiya quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1- test sinovi;
2- amaliy ko'nikmani baholash;
3- yakuniy suhbat (vaziyatli masalalarni yechish).

Test sinovi – malaka oshirish mutaxassisligi bo'yicha kafedrada ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baholanadi: to'plangan to'g'ri javoblar hajmi umumiy test topshiriqlari ulushining 70%i va undan ortig'ini tashkil etganda - "o'tdi", 69% va undan kam natijaga erishilganda - "o'tmadi" deb baholanadi. Tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi o'quv dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan hajmda test savollari berilishi tavsiya etiladi. Test sinovidan o'tgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baholash bosqichiga qo'yiladi.

Amaliy ko'nikmani egallash darajasini baholashda tibbiyot va farmatsevtika kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baholash natijalari "o'tdi" va "o'tmadi" deb belgilanadi. Amaliy ko'nikmalarni bajarish algoritmi bo'yicha biron bir qadamni noto'g'ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi yakuniy attestatsiyaning mazkur bosqichidan "o'tmagan" deb hisoblanadi va keyingi yakuniy suhbat bosqichiga kiritilmaydi.

Yakuniy suhbat bosqichida tinglovchiga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Nazoratning ushbu turi berilgan umumiy to'g'ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo'lganda – "o'tdi", 6 ta va undan kam bo'lgan hollarda – "o'tmadi" sifatida baholanadi.